

O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI
NUKUS FILIALI

YAKUPBAYEV ALISHER ALIMBAYEVICH

MALAKALI ERKIN KURASHCHILARDA MAXSUS CHIDAMLILIKNI
OSHIRISH METODIKASI

13.00.04 - Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv jismoniy
tarbiya nazariyasi va metodikasi

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Chirchiq – 2024

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Yakubayev Alisher Alimbayevich

Malakali erkin kurashchilarda maxsus chidamlilikni oshirish metodikasi..... 3

Якубаев Алишер Алимбаевич

Методика повышения специальной выносливости у квалифицированных борцов
вольного стиля31

Yakubayev Alisher Alimbayevich

The methodology of increasing special endurance in skilled freestyle
wrestlers..... 63

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....67

O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI
NUKUS FILIALI

YAKUPBAYEV ALISHER ALIMBAYEVICH

MALAKALI ERKIN KURASHCHILARDA MAXSUS CHIDAMLILIKNI
OSHIRISH METODIKASI

13.00.04 - Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv jismoniy
tarbiya nazariyasi va metodikasi

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Chirchiq – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining B2023.2.PhD/Ped5304 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport iniversiteti Nukus filialida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.jtsu.uz) va “ZiyoNET” Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Safarova Dilbar Djamalovna biologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Korobeynikov Georgiy Valerevich pedagogika fanlari doktori, dotsent Aliyev Iskandar Baxromovich pedagogika fanlari nomzodi, professor
Yetakchi tashkilot:	Urganch davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil “__” _____ soat ____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Metallurglar ko‘chasi, 15-uy. Tel.: (0-370) 717-17-79, 717-27-27, faks: (0-370) 717-17-76, Veb-sayt: www.uzdjtsu.uz. e-mail: uzdjtsu@uzdjtsu.uz. O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti “Madaniyat saroyi” kichik majlislar zali, 2-qavat ilmiy kengash zali).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko‘chasi, 19-uy. Tel: (0-370) 717-17-79,717-27-27, faks.: (0-370) 717-17-76.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “__” _____ kuni tarqatildi.

(2024-yil “__” _____ da _____ raqamli reestr bayonnomasi)

R.M.Matkarimov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, pedagogika fanlari
doktori (DSc), professor

Sh.Sh.Gaziyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash kotibi, pedagogika fanlari
doktori (DSc), dotsent

A.N.Shopulatov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy
seminar raisi, pedagogika fanlari
doktori (DSc), dotsent

Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda kurashchilarni zamonaviy sharoitlarda tayyorlashning muvaffaqiyatli tashkil etish, mashg'ulotlar jarayonini boshqarish va nazorat qilish usullarining samaradorligi, kurashchilarni tayyorlashda zamonaviy texnologiyalardan oqilona foydalanish hamda organizmning yosh xususiyatlarini hisobga olib, malakali erkin kurashchilarni maxsus chidamliligini tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ko'plab mamlakatlarda kurash sport turi bilan shu'g'ullanuvchi sportchilarni tayyorlash tizimini zamon talablariga moslashtirish, malakali erkin kurashchilarning maxsus chidamliligini oshirish bo'yicha o'quv-mashg'ulot jarayonini tashkil qilish hamda erkin kurashchilarning maxsus chidamliligini oshirish va tayyorgarlik turlari ko'rsatkichlarini oshirish orqali kurashchilarga musobaqalar jarayonida yuqori natijaga erishish imkoniyatini oshirish dolzarblik kasb etmoqda.

Jahonda soha olimlari va tadqiqotchilar tomonidan sport kurashlarining erkin kurash turiga ixtisolashgan yuqori malakali sportchilarni tayyorlash tizimini zamon talablariga mos ravishda rejalashtirish, mashg'ulotlarni olib borishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari o'tkazilmoqda. O'rganilgan ilmiy adabiyotlar tahlilida erkin kurashchilarning yillik tayyorgarlik mashg'ulotlarini rejalashtirish, sportchilarning jismoniy tayyorgarligiga qarab mashg'ulot jarayonlarini qo'llaniladigan vosita va usullar umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik yuklamalarining nisbatlari bajarilish shiddati, takrorlanishlar soni, dam olish oraliqlariga bog'liq bo'lgan muammolarni hal etish bo'yicha ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Tayyorgarlik vositalaridan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlarini, mashg'ulotning adekvat usullarini tanlash va tayyorgarlik bosqichlarida erkin kurashchilarning funksional holatini baholashga qaratilgan, malakali erkin kurashchilarda maxsus chidamlilikni oshirishning metodologik asoslarini ishlab chiqish muammolari tadbiiq etish zaruratini tug'dirmoqda.

Respublikamizda yakkakurash sport turlarini yanada ommalashtirish va yuqori natijalarga erishishda malakali erkin kurashchilarni tayyorlash ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaratilmoqda. "Sport kurashlarini aholi o'rtasida keng targ'ib qilish, iqtidorli sportchilarni, shu jumladan sportchi ayollarni aniqlash, tanlash va saralash (seleksiya) hamda ularni professional sportchilar sifatida tayyorlashning yangi tizimini yo'lga qo'yish"¹ izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Hozirgi vaqtda turli uslubdagi kurashchilarni tayyorlash metodikasi bo'yicha materiallar ishlab chiqilgan, jismoniy tayyorgarlik tarkiblari tahlil qilingan, rasional ovqatlanish va ortiqcha mashg'ulotlar hamda jarohatlarning oldini olishga e'tibor qaratilmoqda. Sport mashg'ulotlarini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari morfologik, fiziologik, texnik va ijtimoiy tarkibiy qismlarni o'z ichiga olgan sportchining har biri tanlangan ixtisoslikni hisobga olgan holda o'ziga xos ta'rif va ahamiyatga ega bo'lgan yosh xususiyatlari hamda malakali erkin kurashchilarda maxsus chidamlilikni oshirish hozirgi kunda eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-iyuldagi PQ-336-son "Sport kurashlarining olimpiya turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-avgustdagi PQ-3196-son “Nufuzli xalqaro sport musobaqalarida yuksak natijalarga erishgan O‘zbekiston sportchilarini jamoat va sport ishlariga keng jalb etish hamda sportchilarni va ularning trenerlarini rag‘batlantirish to‘g‘risida”, 2021-yil 5-noyabrda PQ-5281- son “2024 yil Parij shahrida (Fransiya) bo‘lib o‘tadigan XXXIII yozgi Olimpiya va XVII Paralimpiya o‘yinlariga O‘zbekiston sportchilarini kompleks tayyorlash to‘g‘risida”, 2022-yil 29-iyuldagi PQ-336-son “Sport kurashlarining olimpiya turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot Respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning: I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovasion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” bilan bog‘liq ustuvor yo‘nalishlarga mos ravishda amalga oshirilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Bugungi kunda mavzuga oid ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish jarayonida, turli yoshdagi erkin kurashchilar uchun sportchilarni sinovdan o‘tkazish, mashg‘ulot va musobaqa yuklamalari, sportga layoqatlilikini aniqlash mezonlari va usullari hamda erkin kurashchilarning koordinatsion qobiliyatini zamonaviy sport uskunalaridan foydalanib rivojlantirish bo‘yicha F.A.Kerimov, A.I.Nedorezov, M.A.Ruziyev, A.A.Ruziyev, D.D.Safarova va M.D.Pulatovalar² yakkakurash sport turlarida tayyorgarlik tizimini takomillashtirish, kurashchilarning turli jihatdan morfo-funksional yo‘nalishlarida tadqiq etish bo‘yicha Z.A. Bakiyev, N.A.Kerimovlar kurashchilarning jismoniy tayyorgarligi va massaj orqali rivojlantirish hamda yakkakurash sport turi bilan shug‘ullanuvchilarning mashg‘ulotdan keyin organizm faoliyatini qayta tiklash masalalarini bo‘yicha E.T.Raxmanov, I.B.Aliyev, S.Q.Adilov va boshqa mutaxassislar tomonidan sohaga oida izlanishlar olib borilgan.

² Керимов Ф.А., Недорезов А.И., Рузиев М.А., Рузиев А.А., Система планирования и контроля учебно- тренировочных нагрузок в волной борьбе // Олимпия харакатини ривожлантйриш, олимпия таълимотини жорий этиш ва Сиднейда ўтказиладиган XXVI Олимпия ўйинларига тайёргарлик масалаларига бағишланган: III Республика илмий-амалий анжумани муаммолар тўплами. 1999. –271с.; Сафарова Д.Д., Пулатова М.Д. Взаимоотношения показателей гемодинамики с проявлением физической работоспособности у спортсменок-дзюдоисток // Научно – теоретический журнал «Наука и спорт: Современные тенденции» №1 (том 14), Казан, 2017, - С. 41-45.; Бакиев З.А., Керимов Н.А. Инновационны е технологии в подготовке квалифицированных борцов на основе системного анализа деятельности спортсменов и тренеров с учетом уровня их спортивного мастерства шаг в науку // Материалы IV научно-практической конференции молодых ученых (II всероссийской) г. Москва, 2020. - С.328-334.; Rakhmanov E. T. Analysis of general and special physical training of qualified greco-roman wrestlers // Eurasian Journal of Sport Science 2021; 1(2): 239-245; Алиев И.Б. Кураш билан шуғуланувчи талаба спортчиларни машғулот юкламаларининг оптимал нисбатлари // Пед.фан.ном.: дисс.автореф., Тошкент. ЎзДЖТИ. 2012. – 58 б; Адиллов С. Қ. Малакали курашчиларнинг жисмоний тайёргарлиги ва унинг қийсий таҳлили // Фан – спортга №7. 2020. - С.24-26.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan G.S.Tumanyan, A.A.Karelin, B.V.Ivanyujenkov, V.V.Nelyubin, Yu.F.Kuramshinlar³ o'z tadqiqotlarida kurash mashg'ulotlarida texnik arsenalni yaxshilaash uchun texnik harakatlarni, biomexanik tahlil va psixologik o'zini o'zi tahlil qilish bo'yicha tizimli ishlar hamda kurashchining chidamlilik darajasi ko'p jihatdan harakat funksiyalarining turli parametrlarining charchoqqa qanchalik chidamliligini ta'minlovchi uzluksiz tayyorgarlik metodikalari asosida tashkil qilishni ko'rib chiqqanlar.

Xorijiy davlatlarda kuch va tezlik qobiliyatlarini, shuningdek, intervalli usul yordamida trenajyorlarda mashqlarga urg'u bergan holda bajarish yo'li bilan erkin kurashchilarning lokal chidamliligini rivojlantirish bo'yicha L.F.Monteiro, yakkakurash sport turlarida va sport o'yinlarida musobaqa faoliyati modeli samarali hujum va himoya harakatlarining soni, texnik va taktik usullarning soni va xilma-xilligi, o'yin faolligi va sport kurashi davomida yuqori ish qobiliyatini saqlab qolish xususiyati bo'yicha P.Hirtz, W.Starosta, B.Mirzayei, D.Kirby, I.Barbaslar⁴ tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.

Tahlillarga ko'ra, erkin kurashchilar uchun maxsus chidamlilikni oshirishda uzoq vaqt davomida yuqori intensivlikdagi harakatlarni bajarishi hamda maxsus chidamlilikni o'ziga xos sharoitlarda (kurash holatlarida) qiyinchiliklarga qarshi kurasha olish qobiliyati takomillashtirish muhim hisoblanib, malakali erkin kurashchilarning maxsus chidamliligini oshirish metodikasini takomillashtirish dolzarb ekanligini tasdiqlaydi.

Dissertasiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining IV.2 "Yakka kurash sport turi bilan shug'illanuvchi sportchilarning tayyorgarlik tizimini takomillashtirish" mavzusi ilmiy yo'nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi 15-16 yoshli malakali erkin kurashchilarda maxsus chidamlilikni rivojlantirish metodikasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

malakali erkin kurashchilarning maxsus chidamliligini oshirish metodikasini turli yo'nalishlarda har xil ushlab olishlar bilan bajariladigan usullar yordamida takomillashtirish;

malakali erkin kurashchilarda psixologik xususiyatlarini nazorat qilish uchun psixologik vosita va usullarini ishlab chiqish;

³ Туманян Г.С. Спортивная борьба. М.: Советский спорт. 2000. - 406 с.; Карелин А.А. Модел высококвалифицированного борца / Монография Карелин А.А.Иванюженков Б.В., Нелюбин В.В.. Новосибирск, 2005 – 265 с.; Курамшин Ю.Ф. Теория и методика физической культуры/под редакцией Ю.Ф.Курамшина 4 изд. стереотип. М.: Совет спорт, 2010, - 464 с.

⁴ Monteiro L.F. Structure et Cont Energetiques des Combats de Judo //Poster presentations judo Conference, -Munich, Germany. 24 Yuly 2001. 24-25.; Hirtz P., Starosta W. Sensitive and critical periods of motor co-ordination development and its relation to motor learning //Journal of human kinetics. – 2002. – Т. 7. – С. 19-28.; Mirzayei, B. Physiological profile of a world wrestling champion /B. Mir- zayei, D. Kirby, I. Barbas //Modern problems of high quality training in wrestling: Proccyedlings of the Conferense & FILA.- Moscow: Russ-Olimp, 2010.- P. 21-28

15-16 yoshli erkin kurashchilarning gipoksik yoʻnalishdagi nafas olish mashqlari va trenejyorlarda bajariladigan mashqlarni tizimli rivojlantirish;

erkin kurashchilarning turli holatlarda texnik usullarni samarali bajarishda maxsus chidamliligini rivojlantirish uchun maxsus mashqlar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Nukus shahar Yakkakurash sport turlariga ixtisoslashtirilgan maktabidagi 15-16 yoshdagi malakali erkin kurashchilarning oʻquv-mashgʻulot jarayoni olingan.

Tadqiqotning predmetini malakali erkin kurashchilarning mashgʻulotlarida maxsus chidamliligini rivojlantirish va uni qoʻllash uslubiyatini hamda mushaklarga taʼsirini tahlil qilishni tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda kurashchilarni, xususan, erkin kurashchilarni tayyorlash masalalari boʻyicha ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish, pedagogik kuzatuv, antropometriya, fiziologik test, pedagogik test, genetik tahlil usullari, pedagogik eksperiment, matematik-statistika kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidalardan iborat:

malakali erkin kurashchilarning jismoniy tayyorgarligini oshirish uchun bellashuv yakunida kuzatiladigan kompensatsiya va dekompensatsiya (emotsional, sensor va kumulyativ) charchash turlarini bartaraf etishga qaratilgan toʻrtta darajali raqibning harakatlariga moslashish, harakatlarni boshqarish, konsentratsiyani saqlash va musobaqa vaqtida toʻgʻri qaror qabul qilish usullarini mashgʻulotlar jarayonida muvoffiqlikda qoʻllash hisobiga bellashuvlardagi turli murakkab taktik vaziyatlarda maxsus chidamlilikni naʼmoyon etish samaradorligi oshirilgan;

malakali erkin kurashchilarning musobaqa jarayonida start oldi hayajonlanish darajasini oldini olish uchun his-hayajon tonusini kamaytirishga qaratilgan indentifikatsiya (oʻzini raqibiga oʻxshatish, unga taqlid qilish) operativ, psixosomatik (vaziyatni samarali boshqarish) kabi vosita va usullar algoritmini mashgʻulotlar jarayoniga singdirish bilan final bellashuvi oldi holatida psixologik boshqarish tizimlarini optimallashtirish orqali musobaqa faoliyatining natijadorligi yakuniy bellashuvning ballari kesimida oshirilgan;

15-16 yoshli erkin kurashchilarning bellashuvlarida yuzaga keladigan charchash va toliqish holatini oldini olish maqsadida ishlab chiqilgan aylana dinomometrik stendda qoʻllarni turli ogʻirliklar bilan aylantirish, qoʻl va oyoqlarga yuklarni bogʻlagan holda bellashuvlarni olib borish kabi mashqlar orqali jismoniy sifatlarni tizimli rivojlantirishda anaerob yoʻnalishdagi usullarni bajarish imkoniyatlari kengaytirilgan;

erkin kurashchilarning turli holatlarda texnik usullarni samarali bajarish uchun tik va parter holatida turli harakat va usullarni raqib bosimida submaksimal va maksimal shiddat zonalarida ish samarasini pasaytirmasdan bajarish bilan erkin kurashchilarning maxsus chidamliligini ifodalovchi yuklamalarni oʻzgaruvchan surʼatda variativ qoʻllash hisobiga raqibga usul bajarishdagi noqulay vaziyatlarda tana va qoʻllarning simmetrik harakat mezonlari takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

malakali erkin kurashchilarning jismoniy sifatlarni rivojlantirishning asosi hisoblangan funksional holat koʻrsatkichlarini oʻz ichiga oluvchi kompleks testlardan foydalanish texnologiyalari takomillashtirilgan.

erkin kurashchilarning UJT va MJT hamda texnik va taktik ko'rsatkichlarini baholovchi testlar kompleks holatda sportchilarning tayyorgarlik darajasini ob'yektiv baholashga erishilgan.

yengil atletika vositalaridan foydalangan holda malakali erkin kurashchilarning mashg'ulot yuklamalarini rejalashtirish va ularni qo'llash bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Erkin kurash mashg'ulotlar jarayonida yengil atletikaning quyidagi "standart tekisliklarda va nostandart joylarda va tekis yuzalıklarda 3000 m ga yugurish", "turli xil yurish" kabi turlaridan ustuvor foydalanish samaradorligi ilmiy asoslangan.

Erkin kurashchilarning potensial jismoniy qobiliyatlarini amalga oshirishga qaratilgan: "stadionda 10 daqiqa davomida yugurish (400 m)" hamda "3 daqiqa yugurish + 30 soniya dam olish + 3 daqiqa yugurish" mashqlari amaliyotga joriy qilingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Ishda qo'llanilgan yondashuv, yakkakurash sport turlari mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi sohasidagi chet el hamda respublikamiz olimlarining fikr-mulohazalariga asoslanganligi, tadqiqot vazifalariga mos keluvchi o'zaro bir-birini to'ldirib boruvchi tadqiqot uslublarining qo'llanilganligi, tahlil hamda tadqiqot vazifasining son va sifat jihatdan ta'minlanganligi, tajriba-sinov ishlarining reprezentivligi hamda olingan natijalarning matematik-statistik tahlil qilish usullari yordamida qayta ishlab chiqilganligi, natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati pedagogik kuzatuv, so'rovnoma, joriy tadqiqotlar va pedagogik tajriba natijalari malakali erkin kurashchilarda maxsus chidamlilikni oshirish usullari, bioximik va fiziologik (yurakni qisqarish va nafas olish ritmi-chastotasi) resurslarga asoslangan statodinamik kuch chidamliligiga bog'liq ekanligi ochib berilgan. Ushbu sifatlar chidamliligi va barqarorligini shakllantiruvchi mashqlar integral ta'sir etuvchi xususiyatga ega ekanligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, 15-16 yoshli kurashchilarga xos bo'lgan dominant somatotiplar, shuningdek, ularning funksional tayyorgarligi mezonlari ishlab chiqish, ular asosida erkin kurashchilarni tasniflash o'tkazish, erkin kurashchilarning funksional va jismoniy tayyorgarligi jarayonini nazorat qilish bosqichma-bosqich ularning ko'nikma va malakalarini shakllanishi hamda olingan natijalarning ishonchlilik darajasini hisobga olgan holda ta'minlash, kuch sifatleri va chidamlilikni rivojlantirishga qaratilgan vosita va usullarning majmuasidan, shuningdek, yengil atletikaning ustun vositalaridan foydalanish orqali eksperimental dasturning yuqori samaradorligi, mashg'ulot ta'siri va yuklamalar hajmini to'g'ri taqsimlash natijasida erkin kurashchilarning asosiy jismoniy sifatleri hamda aerobik imkoniyatlarini jadal rivojlantirishga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Erkin kurashchilarni mashg'ulotlar davomida maxsus mashqlar majmuasi yordamida maxsus chidamliligini rivojlantirish metodikasini ishlab chiqishga qaratilgan tadqiqotlar asosida:

malakali erkin kurashchilarning jismoniy tayyorgarligini oshirish uchun bellashuv yakunida kuzatiladigan kompensatsiya va dekompensatsiya (emotsional, sensor va kumulyativ) charchash turlarini bartaraf etishga qaratilgan to'rtta darajali

raqibning harakatlariga moslashish, harakatlarni boshqarish, konsentratsiyani saqlash va musobaqa vaqtida to'g'ri qaror qabul qilish usullarini mashg'ulotlar jarayonida muvoffiqlikda qo'llash hisobiga bellashuvlardagi turli murakkab taktik vaziyatlarda maxsus chidamlilikni na'moyon etish bo'yicha taklif va tavsiyalar Nukus olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi sportchilarining sport mashg'ulotlarida qo'llanildi (Qoraqalpog'iston Respublikasi Sport vazirligining 2024-yil 8-iyundagi 01-09/3141-son ma'lumotnomasi). Natijada PWC-170 bo'yicha jismoniy ish qobiliyati ko'rsatkichida oraliq bosqichda 4,15%ga va tadqiqot yakunida 14,4% ga o'sgan;

malakali erkin kurashchilarning musobaqa jarayonida start oldi hayajonlanish darajasini oldini olish uchun his-hayajon tonusini kamaytirishga qaratilgan identifikatsiya (o'zini raqibiga o'xshatish, unga taqlid qilish) operativ, psixosomatik (vaziyatni samarali boshqarish) kabi vosita va usullar algoritmini mashg'ulotlar jarayoniga singdirish bo'yicha amaliy tavsiyalar Qoraqalpog'iston Respublikasi yakka kurash turklariga ixtisoslashtirilgan sport maktabi sportchilarining sport mashg'ulotlarida qo'llanildi (Qoraqalpog'iston Respublikasi Sport vazirligining 2024-yil 8-iyundagi 01-09/3141-son ma'lumotnomasi). Natijada manekenni o'zgaruvchan sur'atda 3 daqiqa davomida tashlash testida tajriba guruhi erkin kurashchilarining natijalari oraliq bosqich oxiriga kelib 7,4% va tadqiqot yakuniga kelib 8,5% oshgan;

15-16 yoshli erkin kurashchilarning bellashuvlarida yuzaga keladigan charchash va toliqish holatini oldini olish maqsadida ishlab chiqilgan aylana dinamometrik stendda qo'llarni turli og'irliklar bilan aylantirish, qo'l va oyoqlarga yuklarni bog'lagan holda bellashuvlarni olib borish kabi mashqlarni mujassam etuvchi dastur yordamida jismoniy sifatlarni tizimli rivojlantirishda anaerob yo'nalishdagi usullarni bajarish bo'yicha taklif va tavsiyalar O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali SPMO mashg'ulotlarida qo'llanildi (Qoraqalpog'iston Respublikasi Sport vazirligining 2024-yil 8-iyundagi 01-09/3141-son ma'lumotnomasi). Natijada talaba-erkin kurashchilarning maxsus chidamliligi 15,3% ga oshgan;

erkin kurashchilarning turli holatlarda texnik usullarni samarali bajarish uchun tik va parter holatida turli harakat va usullarni raqib bosimida submaksimal va maksimal shiddat zonalarida ish samarasini pasaytirmasdan bajarish bilan erkin kurashchilarning maxsus chidamliligini ifodalovchi yuklamalarni o'zgaruvchan sur'atda variativ qo'llash bo'yicha taklif va tavsiyalar O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali SPMO mashg'ulotlarida qo'llanildi (Qoraqalpog'iston Respublikasi Sport vazirligining 2024-yil 8-iyundagi 01-09/3141-son ma'lumotnomasi). Natijada tajriba guruhida 60 soniya ichida o'tirib-turishlar soni bo'yicha chidamlilikka qaratilgan testda 1 va 2 bosqichlar orasida ko'rsatkich 3,9% ni tashkil etdi, 1 va 3 bosqichlar orasidagi qiymat 10,1% ga o'sgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro, 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazildi.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy-uslubiy ishlar, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya qilingan ilmiy nashrlarida 3 ta maqola (2 ta respublika va 1 ta xorijiy ilmiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya “kirish”, 4 ta bob, xulosalar va amaliy tavsiyalar, ilovalar va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, matni 138 betni tashkil etadi. Dissertatsiyada 20 ta jadval va 8 ta rasmlarda qayd etilgan diagrammalardan foydalanilgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi va uning zarurati, tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi, dissertatsiyaning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti, tadqiqot usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati va ularning joriy qilinishi, aprotatsiyasi va e‘lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida batafsil ma‘lumotlar yoritib berilgan.

Dissertatsiyaning **“Bolalar va o‘smirlar sportida asosiy yo‘nalishlarning holati va istiqbollari”** deb nomlangan birinchi bobida bir qator yetakchi olimlarning nashriy materiallari, xususan va boshqalarning ilmiy-tadqiqot natijalari ko‘rib chiqilgan va tahlil qilingan. Bunda, mashg‘ulot jarayonini psixologo-pedagogik ta‘minlash masalasiga alohida e‘tibor qaratilgan. Shu bilan birga ushbu mavzu, konstatatsiya va bashorat qiluvchi saralash muammolarini hal qilishga yo‘naltirilgan. Sportda bashorat qiluvchi saralash asosida, sport qobiliyatini sportda mahoratni shakllanishi bosqichida o‘z vaqtida aniqlanish muhim, chunki yuqori malakali sportchilarni tayyorlash mas‘ulyatini, jumladan, xorijiy investisiyalarni kiritilishini talab qiladigan jarayon hisoblanadi. Bashorat qiluvchi saralash genotip ko‘rsatkichlariga asoslangan bo‘lib, ular tadqiqotlarning genetik usullari yordamida aniqlanadi. Konstatatsiya qiluvchi sportda saralash sportchining morfofunktsional ko‘rsatkichlariga asoslangan bo‘lib, ular sportchining joriy holatiga istiqbolliligi, zaxira va adaptatsion imkoniyatlari to‘g‘risidagi tavsiyalar bilan obyektiv baho berish imkonini beradi (V.P.Filin, N.A.Fomin, V.P.Filin, V.B.Shvars, S.V.Xrushev, L.V.Volkov, M.Ya.Nabatnikova, I.I.Axmetov, D.D.Safarova, A.B.Taymazov).

Sportchilarni sport kurashi turlari bo‘yicha tayyorlash tizimini takomillashtirishda sportda tayyorgarlikning asosiy bosqichlari ko‘rib chiqilgan, o‘quv-trenirovka jarayonidagi yuklamalarning jadalligi va hajmini monitoring qilish, erkin kurash bo‘yicha jahondagi yetakchi kurashchilarining musobaqa faoliyatini tizimli tahlil qilish va texnik ko‘rsatkichlarini taqqoslash natijalari bayon qilingan. Har xil sport kurashi stilidagi sportchilar qo‘llaydigan texnik usullarni umumiy tavsiflarini tuzish imkonini bergan ma‘lumotlar keltirilgan (F.A.Kerimov, Z.A.Bakiyev, S.K.Adilov, M.Kirgizboyev).

Shunday qilib, bellashuvni olib borishni individual stiliga mos keladigan vositalarni tanlash, “begona” stildagi vositani tanlashga nisbatan kurash usullarini texnik-taktik arsenalini ancha samarali o‘zlashtirilishiga ko‘maklashganligi aniqlangan. Kurashchining maxsus chidamliligini va uni yakkakurashchilar tayyorgarligidagi ahamiyatini o‘rganish masalalari yoritilgan. Kurashchilarning model

tavsiflari uzoq muddat davomida o'rganilayotganligiga qaramasdan, ruxsat berilgan va man qilingan harakat amallari ro'yxatiga ta'sir qiladigan musobaqalar qoidalarini doimiy tarzda o'zgarishi tufayli, bu masalalarni tadqiq qilish dolzarbligicha qolmoqda va yanada chuqur o'rganishni talab qiladi.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot usullari va tashkil qilinishi”** deb nomlangan ikkinchi bobida erkin kurash stilidagi sportchilarni umumiy va maxsus tayyorgarligini hamda erkin kurash uchun spesifik bo'lgan texnik harakatlarni baholash bilan pedagogik testlashning majmuaviy usullarini o'z ichiga olgan majmuaviy testlash qo'llanilganligi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Pedagogik testlash majmuasiga quyidagilar kiritildi: Joyidan turib uzunlikka sakrash, qo'llarni tayanchda bukib yozish, 30 sekund davomida, turnikda tortilish, o'tirib turishlar, 60 s davomida, 4x10 m mokisimon yugurish, arqonga chirmashib chiqish, 4 metrlik, 1000 m yugurish, texnik harakatlardan orqadan chalish bilan 10 marta tashlash, orqadan oshirib 10 marta tashlash, manekenni 3 minut davomida o'zgaruvchan sur'atda tashlash kabi testlardan foydalanildi.

Testlarni tanlashda, umumiy va maxsus tayyorgarlikni birligi tamoyilidan foydalanildi, texnik-taktik harakatlar shular asosida shakllanadi. FunkSIONAL tayyorgarlikni baholash uchun eng informativ fiziologik testlardan foydalanildi, ular PWC-170 bo'yicha jismoniy ishchanlik qobiliyati, O'TS – o'pkaning tiriklik sig'imi, Kuper testi, nafasni olishda ushlab qolish, Garvard step-testi kabi testlardan foydalanildi.

Ishlab chiqilgan tadqiqot rejasiga ko'ra, ketma-ket amalga oshiriladigan uchta bosqich rejalashtirilgan va amalga oshirilgan. Tadqiqot O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining Nukus filiali bazasida o'tkazilgan bo'lib, 15-16 yoshli kurashchilar Nukus sport yakkakurashlari markazida erkin kurash seksiyasida tekshirilgan va sinovdan o'tkazilgan.

Tadqiqotning birinchi bosqichida (2020-2021 yillar) o'rganilayotgan mavzu bo'yicha adabiyotlarni to'plash va nazariy tahlil qilish, murabbiylik tajribasini umumlashtirish amalga oshirildi, bu o'rganilayotgan muammoning asosiy jihatlarini erkin kurash turini rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari asosida tizimli ravishda aniqlashga imkon berdi, ishning nazariy va amaliy ahamiyati aniqlandi, mavzuning dolzarbligi va tadqiqot vazifalari shakllantirildi, ilmiy yangilik aniqlashtirildi, keyingi bosqichlarda qo'yilgan vazifalarga yechim topish yo'llari taklif qilindi.

Tadqiqotning ikkinchi bosqichi (2021-2022 yillar) erkin kurash bo'yicha murabbiylar va mutaxassislar – F.A. Kerimov, Z.A. Bakiyev, S.K. Adilovlar bilan suhbatlardan iborat bo'ldi, natijada 15-16 yoshli kurashchilarning o'smirlar jismoniy tayyorgarligi tizimini tayyorgarlikning zamonaviy vositalarini joriy etish orqali, yengil atletika vositalaridan ustuvor foydalanish, xususan, umumiy, tezkor- kuch chidamliligining o'sishiga hissa qo'shuvchi turli masofalarga yugurish (30m, 1000m, Kuper sinovi, tekis va tog'li joylarda) modernizatsiya qilish zarurati aniqlandi. Ishonchli va to'g'ri natijalarga erishish uchun pedagogik, tibbiy-biologik va genetik tadqiqot usullarini tanlash amalga oshirildi.

Ishning uchinchi bosqichida (2022-2023 yillar) – 15-16 yoshli erkin kurashchilarni tayyorlashning eksperimental dasturi ishlab chiqildi. Jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari dinamikasini aniqlash uchun jismoniy rivojlanishni

baholash o'tkazildi, dominant somatotiplar va bir yillik mashg'ulot ta'siridan ularning tana vaznining komponentlari tarkibidagi o'zgarishlari aniqlandi. Jismoniy tayyorgarlikning tahlili UJT va MJT vositalarining hajmi va nisbatlariga qarab amalga oshirildi. UJTning ustuvor vositalari quyidagi vazifalarni hal qilish uchun zarur bo'lgan umumiy tayyorgarlik xarakteridagi mashqlar hisoblanadi: sportchilarning funksional va jismoniy sifatlarini rivojlantirishni optimallashtirish, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash va o'zlashtirish, bular asosida texnik harakatlarning yanada aniq bajarilishiga erishiladi. Kurashchilarning UJT vositalarining keng to'plamiga mutaxassislar ko'pincha sport va harakatli o'yinlar, gimnastika va akrobatika mashqlari, shtanga va giryalar bilan mashqlarni kiritadilar. Ikkinchi guruhda sezilarli davomiylik bilan tavsiflangan va umumiy chidamlilikning namoyon bo'lishini talab qiladigan, shuningdek, kurashchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishga hissa qo'shadigan maxsus mashqlar kiradi.

Tadqiqot davomida olingan natijalar umumlashtirildi, olingan natijalar mazmunining mantiqiy tavsifi amalga oshirildi, eksperimental dasturning samaradorligi isbotlandi, yangilik taqdim etildi, xulosalar va amaliy tavsiyalar shakllantirildi, dissertatsiya yozish tugallandi va amalga oshirish aktlari amaliyotga tatbiq etildi.

Dissertatsiyaning **“Erkin kurashchilarni tana tuzilishi ko'rsatkichlarini, funksional va jismoniy tayyorgarliklarini nasliy moyilligini hisobga olgan holda majmuaviy baholash”** deb nomlangan uchinchi bobida erkin kurash stilidagi kurashchilarni tana tuzilishi ko'rsatkichlari va ularni sportchilarning jismoniy tayyorgarligi va sportda saralashdagi ahamiyati, sportda takomillashuv bosqichida funksional yondashuvni qo'llash asosida istiqbolliligini baholash yuzasidan tajribalarda olingan natijalarning tahlili keltirilgan.

Zamonaviy sport dunyosida sportchilarning funksional holatiga qo'yiladigan talablarni doimiy ravishda oshib borish tendensiyasi mavjud, chunki aynan shu funksional ko'rsatkichlar: qon aylanishining daqiqali hajmi – QADH, jismoniy ish qobiliyati, aerob, anaerob imkoniyatlari, yurak-qon tomir tizimining gemodinamik parametrlari jismoniy sifatlarni rivojlanishining asosi hisoblanadi. Olimpiya o'yinlarining shiori “Tezroq, balandroq, kuchliroq” ekanligi bejiz emas. Ammo insonning fiziologik resurslari chegaraga ega, ya'ni kuchli yuklamalarning sportchining organizmiga uzoq muddatli ta'siri nafaqat funksional imkoniyatlarning pasayishiga, balki sport jarohati xavfiga ham olib kelishi mumkin, bu 6% hollarda yuqori malakali sportchilarning sportdan ketishining sabablaridan biri hisoblanadi. Sportchilarning funksional holati informasion ko'rsatkichlaridan biri – bu fiziologik usullar bilan aniqlanadigan jismoniy ish qobiliyati, shuningdek, organizmni aerob energiya bilan ta'minlanish ko'rsatkichi – KMO' yoki kislorodni maksimal o'zlashtirish ko'rsatkichi bo'lib, u nafaqat sportchining tanlangan sport turidagi istiqbollarni, balki uning nufuzli musobaqalarda muvaffaqiyati va natijadorligiga yordam beradigan zaxira imkoniyatlarini ham bashoratlaydi.

Organizmning aerobik imkoniyatlari O'TS o'pkaning tiriklik sig'imi ko'rsatkichlari spirometriya yo'li bilan, KMO' da oddiy hisob-kitoblarga asoslangan bilvosita aniqlash usuli qo'llanildi. PWC -170 bo'yicha jismoniy ish qobiliyati aniqlandi. Jismoniy ish qobiliyati yurak urish tezligi 170 zar/daq. ko'rsatkichga yetishi

mumkin bo'lgan yuklama kuchi qiymatlarida ifodalandi. Qon aylanishining daqiqali hajmi – QADH ko'rsatkichi sistolik hajm (SH) va puls ma'lumotlaridan foydalangan holda hisoblandi. Qon aylanishining daqiqalik hajmi yurak nasos funksiyasining integral ko'rsatkichi hisoblanib, ko'p jihatdan YUQCH va qonning zarb hajmiga bog'liq. Shtange sinovi – nafas olishda nafasni ushlab turish vaqti aniqlanadi. Genchi sinovi – nafas chiqarib nafasni ushlab turish vaqti aniqlanadi. GSTI – erkin kurashchilarning jismoniy yuklamadan keyin tiklanish darajasini baholash uchun Garvard step-testining indeksi aniqlandi.

PWC-170 bo'yicha kg,m/daq va vattlarda aniqlangan jismoniy ish qobiliyati berilgan. Erkin kurashchilarni ish qobiliyati darajasiga ko'ra 3 guruhga bo'lish mumkin: birinchi guruh sportchilari ish qobiliyatining yuqori ko'rsatkichlari bilan ajralib turadi, ularning tebranishlari 1759,7 kg/m/daq yoki 292,3 vatt oralig'ida namoyon bo'ladi. Jismoniy ish qobiliyati 2387,2 yoki 397,8 vatt bo'lgan A. Art-vda eng yuqori ko'rsatkich aniqlandi; Kulb-va A. – 1952,4 kg/m/daq yoki 325,4 vatt; Uri-va – 1907,2 kg/m/daq yoki 312,8 vatt ni tashkil etdi. 5 nafar kurashchi PWC-170 bo'yicha “yaxshi” baholandi, tebranishlar 1226,8 (204,4 vatt) dan 1570 yoki 261,7 vatt oralig'ida o'rnatildi. 5 nafar erkin kurashchida jismoniy ish qobiliyati o'rtachadan past baholandi va uning qiymatlari 952,4 yoki 158,6 vatt dan 1036,0 yoki 172 vatt gachani tashkil etdi (1-jadval). Organizmning aerob imkoniyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich - KMO' o'rtacha statistik darajada qoniqarli rivojlanish tendensiyasining mutlaq qiymatlarida $3,703 \pm 0,771$ /daq va nisbiy qiymatlarida $54,6 \pm 7,44$ ml/daq/kg ni tashkil etdi. Faqat 2 nafar erkin kurashchi mukammal aerobik imkoniyatga ega, 3 nafari “yaxshi”, qolgan 10 nafar kurashchi esa KMO' ko'rsatkichlari “qoniqarli” baholandi. KMO' bo'yicha olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, murabbiylar sportchilarning aerobik imkoniyatlarini rivojlantirishlari, ya'ni aerobik yo'nalishdagi jismoniy yuklamani kuchaytirishlari kerak. Olingan natijalar O'TS – o'pkaning tiriklik sig'imi ko'rsatkichlari bilan ham tasdiqlangan, bunda o'rtacha statik ko'rsatkich, dastlabki bosqichda NG da $2,9 \pm 0,22$ l, TG ida 3,4 l ni tashkil etdi. Sportchilarning jismoniy yuklamalardan keyin tiklanish qobiliyatlarini namoyon qiluvchi GSTI ko'rsatkichi ham qiziqish uyg'otdi. GSTI testining natijalari, 15 nafar sportchining 8 nafari tiklanishning “a'lo” ko'rsatkichlariga ega, qiymatlarning tebranishlari 93,4 dan 121,2 shartli birlikgacha oraliqda bo'ldi; 4 nafar kurashchida “yaxshi” natijalar o'rnatildi – GSTI 82,4 dan 86,3 sh.b. gachani tashkil etdi, 3 nafar kurashchilarda tiklanish natijalari “qoniqarli” va ko'rsatkichlar 69,7 dan 75,2 sh.b. gachani tashkil etdi.

Biz tomonimizdan harakat faolligi o'zgarganda o'zgarishi mumkin bo'lgan QADH ning yana bir ko'rsatkichi o'rganildi. Shunday qilib, birinchi jismoniy yuklamada QADH qiymati - $8,983 \pm 1,94$ ml, ikkinchi yuklamada $-10,766 \pm 2,81$ ml ni tashkil etdi. Shuni ta'kidlash kerakki, KMO' dan tashqari, QADH ko'rsatkichi ham tana to'qimalariga kislorod yetkazib beruvchi hisoblanadi. Tajribaning boshida izlash jarayonida erkin kurashchilarning jismoniy tayyorgarligi, SM dasturida erkin kurashchilarni tayyorlashda tavsiya etilgan testlar to'plami bo'yicha sinovdan o'tkazildi, xususan, “joyidan turib uzunlikka sakrash”, “turnikda tortilish”, “4 × 10 m ga makkisimon yugurish”, “10 marta beldan oshirib tashlash”, “qo'llarga tayanib yotgan holatda 30 soniya davomida qo'llarni bukib-yozish”, “4,5 m arqonga tirmashib chiqish”, umumiy chidamlilikni baholash uchun “1000 m ga yugurish”, texnik va taktik

ko'rsatkichlar bo'yicha "orqadan chalish bilan 10 marta tashlash", "beldan oshirib 10 marta tashlash", shuningdek, "3 daqiqa davomida o'zgaruvchan sur'atda manekenni tashlash" soni testi o'tkazildi. Maxsus chidamlilikni aniqlash uchun tadqiqotning dastlabki bosqichida 15-16 yoshli (n = 15) erkin kurashchilarning jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarining test natijalari qiyosiy baholandi (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Tadqiqot boshida tajriba guruhidagi erkin kurashchilarining jismoniy tayyorgarligi dinamikasi, (n=15)

No	Nazorat testlar	\bar{X}	σ	V, %
1	Kuper sinovi	1395	19,8	23,12
2	PWC-170	1440,5	300,33	20,81
3	O'TS, (ml)	3300	300,1	19,50
4	Nafas olib nafasni ushlab turish, (s)	45,8	5,03	15,37
5	Joydan turib uzunlikka sakrash, (sm)	201	2,2	16,3
6	Qo'llarga tayanib yotgan holatda 30 soniya davomida qo'llarni bukib-yozish, (marta)	39,3	4,9	17,63
7	Turnikda tortilish, (marta)	19,8	0,7	15,12
8	60 soniya davomida o'tirib-turish, (marta)	50,3	1,4	16,2
9	4 × 10 m ga makkisimon yugurish, (s)	14,8	1,4	15,32
10	30 m ga yugurish, (s)	4,93	0,3	14,30
11	4,0 m arqonga tirmashib chiqish, (s)	8,1	0,3	17,63
12	1000 m ga yugurish (daq.)	4:39,0	2,09	14,15
13	Garvard step-testi (shartli birlik)	93,7	6,01	13,87
14	Elkalardan oshirib 10 marta tashlash, (s)	28,1	2,1	15,32
15	10 marta beldan oshirib tashlash, (s)	27,2	1,5	14,89
16	3 daqiqa davomida o'zgaruvchan sur'atda manekenni tashlash, (soni)	31,5	1,30	17,25

Izoh: O'TS – o'pkaning tiriklik si'g'imi.

Tezkor sifatlarning rivojlanish darajasi "30 metr ga yugurish", texnik va taktik ko'rsatkichlardan – "orqadan chalish bilan 10 marta tashlash", "10 marta yelkadan oshirib tashlash" testlari yordamida baholandi.

"30 metr ga yugurish" testidagi natijalar 5,12 s ni tashkil etdi, bu ham past natija sifatida qaralishi mumkin, chunki yengil atletikachilarning ko'rsatkichlari bilan taqqoslaganda –12 yoshli yuguruvchilar uchun natijalar 3.23,4 s ni tashkil etdi. Tezkor-kuch sifatlari "joydan turib uzunlikka sakrash" testi bo'yicha aniqlandi va 190+2,2 sm ni tashkil etdi, buni o'rtacha natija deb hisoblash mumkin.

Ta'kidlaganimizdek, chidamlilik – kurashchilar uchun muhim jismoniy sifat hisoblanadi. Ishda – erkin kurashchilarda chidamlilik sifatini rivojlantirish maqsadi qo'yilganligi sababli, biz eng muhim testlarni tanlab oldik, xususan, Kuper testi, umumiy chidamlilik "60 soniya ichida o'tirib-turish"lar soni, "1000 m ga yugurish" natijalari asosida baholandi, maxsus chidamlilik – "3 daqiqa davomida o'zgaruvchan sur'atda manekenni tashlash" soni bo'yicha baholandi. Tezkor kuch sifati ham

kurashchilar jismoniy tayyorgarligining ko'rsatkichi bo'lib, kurashchining muvaffaqiyatini belgilaydi. "Turnikda tortilish", "4x10m ga mokkisimon yugurish" kabi testlarda natijalar qoniqarli baholandi. Garvard step- testining 90,3 ko'rsatkichi tiklanish me'yor chegarasida ekanligini ko'rsatadi va u ham qoniqarli baholandi.

2-jadval

Tadqiqot boshida nazorat guruhidagi erkin kurashchilarning jismoniy tayyorgarlik dinamikasi, (n=15)


№	Testlar	Tajriba boshi		
		\bar{x}	σ	V, %
1	Kuper sinovi	1390	20,03	21,21
2	PWC-170 kg/m/daq jismoniy ish qobiliyati	1438,9	294,57	22,18
3	O'TS, (ml)	3200	4,1	16,93
4	Nafas olib nafasni ushlab turish, (s)	44,0	4,07	16,63
5	Joyidan turib uzunlikka sakrash, (sm)	189,0	3,0	19,55
6	Qo'llarga tayanib yotgan holatda 30 soniya davomida qo'llarni bukib-yozish, (marta)	40,6	4,8	16,99
7	Turnikda tortilish, (marta)	20,1	0,9	17,34
8	60 soniya davomida o'tirib-turish, (marta)	49,1	1,6	17,76
9	4 × 10 m ga mokkisimon yugurish, (s)	14,2	1,5	15,77
10	30 m ga yugurish, (s)	5,03	0,4	14,96
11	4,0 m arqonga tirmashib chiqish, (s)	9,0	0,4	18,43
12	1000 m ga yugurish, (daq., s)	4.40,5	3,1	15,23
13	Garvard step-testi, (shartli birlik)	94,1	6,69	14,43
14	Elkalardan oshirib 10 marta tashlash, (s)	30,9	2,9	16,87
15	10 marta beldan oshirib tashlash, (s)	28,7	1,7	15,34
16	3 daqiqa davomida o'zgaruvchan sur'atda manekenni tashlash, marta	31,6	1,4	17,87

Izoh: O'TS – o'pkaning tiriklik si'g'imi.

Kuch sinovlaridan, "qo'llarga tayanib yotgan holatda qo'llarni 30 soniya davomida bukib-yozish", "4,0 m arqonga tirmashib chiqish" testlari o'tkazildi. Kurashda bu testlar yelka kamari mushaklari kuchini, shuningdek, qo'llarning barmoqlari kuchini oshirish uchun qo'llaniladi. Bu mushaklarning samarali ushlashini ta'minlaydi – bu usul erkin kurashda qo'llaniladi.

Erkin kurashchilarni musobaqa start oldi holatini boshqarish. Erkin kurash mashg'ulot va musobaqalarini psixologik ta'minlash sport faoliyatini oldiga qo'yilgan vazifalarini hisobga olgan holda kurashchilarning organizmi va xulq-atvorini psixologik boshqarish tizimlarini optimallashtirish, takomillashtirish hamda maxsus rivojlantirishga qaratilgan tadbirlar majmuasidir. Psixologik tayyorgarlikning asosiy bo'limlaridan biri start oldi holatini boshqarish qobiliyatini rivojlantirishdir. Startoldi

holati, psixologik holatlar majmuasida: 1. Tushinib yetishning umumiy yo‘nalishi, fikrning mazmuni, diqqatning yo‘nalishi. 2. Emotsional-irodaviy xislatlar emotsional qo‘zg‘alish darajasidagi ishonch. 3. Manaviy va irodaviy tayyorgarlik-javobgarlikni xis etish, maqsadga intilish, g‘alabaga ishonch kabi xislatlar ko‘rsatiladi.




1-rasm. Erkin kurashchilarning hayajonlanganlik darajasini kelib chiqish sabalari va uni bartaraf etishda fiziologik va psixologik omillar

Xalqaro musobaqalardan oldin, musobaqadan bir necha kun, hafta oldin va musobaqadan bir necha daqiqa, soat avval paydo bo‘ladigan start oldi holatlari mavjuddir. Ba’zi sportchilarda staroldi holati davrida o‘ziga ishonchsizlik, raqibning imkoniyatlarini oshirib uborish tuyg‘ulari paydo bo‘ladi va startdan so‘ng xatolarga

yoʻl qoʻyadilar. Bular hammasi sportchining asab tizimi mustahkam emasligidan dalolat beradi.

Asab tizimi yaxshi rivojlangan, mustahkam boʻlgan sportchilarda startoldi holatidagi hayajonlanish hissiyotning oshishi sportchiga foydalidir (1-rasmga qarang). Chunki erkin kurashchilarda mazkur holatda oʻziga ishonch, ruhiy quvvat tez uygʻonadi.



2-rasm. Erkin kurashchilarning maxsus chidamliligini texnik usullar yordamida rivojlantirish uslubi

Erkin kurashchilarning mashgʻulotlar jarayonida hayajonlanganlik darajasi oshishida fzilogik va psixologik omillarni taʼsiri tadqiqotimiz davomida aniqlandi. Erkin kurash sport turida start oldi holati bir necha mashqlar avvalgilariga qaraganda hajmi va vaqti kam hamda berilayotgan yuklanish ham kam boʻlishi lozim. His hayajon

pas erkin kurashchilar uchun, ularning holatini ko'tarish uchun qo'zgatish mashqlarini berish kerak.

Malakali erkin kurashchilarning mashg'ulotlar jarayonida psixologik tayyorgarligini takomillashtirishda hayajonlanganlik drajasini oshishida fiziologik va psixologik omillarni tasiri o'rganildi. Erkin kurash mashg'ulotlarida qiyinchiliklar va xatolarni bartaraf qilishda psixologik vosita va usullarni ishlab chiqish hisobiga kurashchilarning tashqi tasirga chidamliligi oshishiga erishildi.

Erkin kurashchilarning mashg'ulotlar jarayonida umumiy va maxsus chidamlilik qobiliyatini texnik usullar yordamida takomillashtirishga e'tibor qaratildi. Bunda 4 ta darajaga texnik usullarni tabaqalashtirib va tik turgan va holatlaridagi usullar variative vositalarni qo'llash orqali optimallashtirildi. Mashg'ulotlar davomida usullar me'yorlarini bosqichma-bosqich bajarishga e'tibor qaratdik. Maxsus chidamlilikni rivojlantirishga qaratilgan erkin kurash texnik harakatlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning murakkabligini ochib bergan holda amalga oshirdik. Erkin kurash uchun umumiy chidamlilikni rivojlantirishga qaratilgan vositalar umumiy tamoillarga tayangan holatda ishlab chiqildi.

Dissertatsiyaning **“Erkin kurash stili bo'yicha 15-16 yoshli kurashchilarni jismoniy tarbiyaning usullari va vositalarini integratsiya qilish asosidagi sport tayyorgarligi”** deb nomlangan to'rtinchi bobi optimal nisbatdagi erkin kurash va yengil atletika vositalarini harakatli o'yinlar bilan uyg'unlashtirish orqali tuzilgan tajriba dasturini ishlab chiqishga va uning samaradorligini tajribalarda asoslashga bag'ishlangan. Biz tomondan ishlab chiqilgan tajriba dasturi erkin kurash stilidagi kurashchilarning an'naviy tarzda tuzilgan trenirovka jarayonidan quyidagi: maxsus jismoniy tayyorgarlik vositalari va usullarini hajmini kattalashtirilganligi; maxsus jismoniy tayyorgarlikni erkin kurash stiliga mos keladigan usullarini qo'llash hajmini oshirilganligi; chidamlilik sifatini rivojlantirish uchun yengil atletika vositalarini qo'llanganligi tavsiflariga ko'ra prinsipial farqlarga ega.

Aylana trenirovkani uyg'unlashtirilgan usullari va jadallashtirilgan usullardan chidamlilik sifatini rivojlantirishga ko'maklashadigan takroriy, intervalli usullar ustivor sifatida qabul qilingan. Tajriba dasturi yillik trenirovka sikli doirasida ishlab chiqilgan bo'lib, asosiy birlik sifatida beshta trenirovka mashg'ulotlari bo'lgan haftalik mikrosikl qabul qilingan, unda, umumiy jismoniy tayyorgarlik va maxsus jismoniy tayyorgarlikning nisbatlari hamda texnik-taktik harakatlarni o'zlashtirish uchun sarflangan vaqt soatlarda hisoblangan. Jismoniy tayyorgarlik vositalari an'anaviy tarzda, organizmni ishlash rejimiga mos ravishda uchta guruhga ajratilgan: nospesifik, spetsifik va ixtisoslashtirilgan. Majmuaviy testlash asosida jismoniy, funksional tayyorgarlik darajalarini baholash amalga oshirilgan. Shuningdek, mashg'ulot davomida organizmning ish qobiliyatini optimal holatgacha tiklash jarayonini amalga oshirish kerak, shundagina keyingi vazifani yanada sifatli bajarish mumkin.

TGning 15-16 yoshli erkin kurashchilarining haftalik mikrosiklidagi mashg'ulotlarining tuzilishi

Hafta kunlari	Jismoniy yuklamalar yo'nalishi	Mashg'ulot mazmuni	Ishning umumiy vaqti	
Dushanba	UJT – tezkor kuch sifatlarini oshirish. MJT ning intervalli usuli	Chigal yozdi mashqlar: Gipoksik yo'nalishdagi nafas olish mashqlari (7 daq) Asosiy qism - gimnastika snaryadlarida bajariladigan mashqlar. Turish holatida usullarni takomillashtirish: sherikni aylantirish va tashlash Parterda usullarni takomillashtirish: Arsen Fadzayev usuli – richag. Amalga oshirilgan tashlashlarni baholash: sherik bilan bellashuvlar	20 daq 25 daq 20 daq 25 daq 30 daq	120 daq.
Seshanba	UJT – kuch va tezkor kuch sifatleri darajasini oshirish. MJT intervalli va takroriy usuli	Nafas olish mashqlarini qo'shish bilan chigal yozdi mashqlar Trenajyorda ishlash: qo'llarni aylantirish bilan ishlash Aylana dinamometrik stendda qo'llarni og'irlik bilan aylantirish (20, 30, 40kg). Trenajyorda ishlash: ikki oyoqda itarilish Gilamda uz og'irlikdagi sherik bilan tashlashlar. Usulni takomillashtirish – 1 daqiqa davomida bir oyoqqa o'tish bilan parterga o'tkazish. Dam olish, keyin 2 daqiqa davomida o'tkazish shtanga bilan mashqlar o'quv-mashg'ulot bellashuvlari	20 daq 15 daq 20 daq 20 daq 15 daq 10 daq 10 daq 10 daq	120 daq.
Chorshanba	Faol dam olish. Aerob yo'nalishdagi mashqlar.	3000 m ga tekis yuzalikda yurish 3 daqiqali yugurish + 30 soniyali dam olish + 3 daqiqali yugurish Sport oyini mshgulotlari	60 daq 60 daq	120 daq.

3-jadval davomi

Payshanba	Chaqqonlik va koordinasion sifatlarni takominlashtirish. Takroriy va intervalli usul	Chigal yozdi mashqlar: cho‘zilish mashqlari –davomiyligi 5-10 soniya. Dam olish – 5-10 soniya. Takrorlashlar soni – 3 martadan Trenajyorda mashqlar. Parterda o‘tkazishlar va tashlashlar. Umumiy chidamlilikni rivojlantirish: tekis va tog‘li hududlarda yugurishning turli variantlari. Sherik bilan bellashuvlar. Dam olish.	20 daq 20 daq 20 daq 20 daq 25 daq 15 daq	120 daq.
Juma	MJT darajasini oshirish. Aylana va intervalli usul O‘quv-mashg‘ulot bellashuvlari	Chigal yozdi mashqlar: mushaklar, bo‘yin, yelka kamari mushaklari, bilak bo‘g‘imida barmoqlarni yaqinlashtiruvchi va bukuvchi (ushlashni ta‘minlash uchun) mushaklar, tik turgan holatda tos-son bo‘g‘imlarini eguvchi mushaklarni cho‘zish. Kurash ko‘prigida sherik bilan bajariladigan mashqlar. 1 daqiqa davomida bir oyoqqa o‘tish bilan parterga o‘tkazishning turli variantlari. Og‘irlikni ikki oyoqda itarish uchun trenajyorlar. Qorin pressi uchun trenajyorlarda ishlash O‘quv-mashg‘ulot bellashuvlari(turli og‘irliklar bilan).	25 daq 15 daq 15 daq 15daq 10daq 10daq 20daq 10 daq	120 daq.
Shanba	Koordinatsion qobiliyatlar darajasini oshirish. Intervalli va takroriy usul	Chigal yozdi mashqlar: gipoksik yo‘nalishdagi nafas olish mashqlari kompleksini qo‘shish bilan Oddiy qoidalar bo‘yicha sport o‘yinlari Gimnastika snaryadlarida bajariladigan mashqlar. Mashg‘ulot manekenini tashlash. 3 daqiqa davomida 10 ⁰ burchakga ega trenajyor uskunasi chalgancha yotgan holatda boshni tizzagacha olib borish va dastlabki holatga qaytish 10 marta samarali tashlashni baholagan holda o‘quv-mashg‘ulot bellashuvlari. Arqonga tirmashib chiqish Oyoq mushaklarini cho‘zish	20 daq 20 daq 20 daq 10daq 10daq 15daq 15daq 10 daq	120 daq.

Izoh: Murabbiy nazarotida olib borilgan.

Ma'lumki, mashg'ulotlarni boshlashdan oldin murabbiylar ikkita fiziologik ko'rsatkichlarni – YUQS va qon bosimini (QB) tekshirishlari kerak va shundan keyingina kurashchi mashg'ulot jarayoniga kiritishi kerak. Bu, ayniqsa, erkin kurashchilar bilan ishlashda "sport tibbiyotining oltin qoidasi" hisoblanadi. Biroq, bu qoida qat'iy bajarilmaydi va murabbiylar tomonidan sportchilarni YUQS va qon bosimi qat'iy tekshirilib, individual holati hisobga olinmaydi. Shuningdek, mashg'ulot davomida organizmning ish qobiliyatini optimal holatgacha tiklash jarayonini amalga oshirish kerak, shundagina keyingi vazifani yanada sifatli bajarish mumkin.

Ushbu bo'limda jismoniy sifatlar – chidamlilik, kuch sifatlarini rivojlantirishga yordam beruvchi vositalarni birlashtirish asosida kurashchilar tayyorgarligini oshirish yo'llari to'g'risidagi ma'lumotlar umumlashtirilgan. Mikrosikl mashg'ulot jarayonining birligi ekanligini hisobga olib, biz 6 soatlik hajmga ega haftalik mikrosiklning eksperimental dasturini ishlab chiqdik, bunda mezosikl davomidagi yuklama hajmi 24 soatni tashkil etdi (3-jadvalga qarang).

Kuchlanishning xarakteri va mushaklarning ishlash rejimidan kelib chiqqan holda ta'kidlash mumkinki, kuch chidamliligi – mushaklarning yuqori zo'riqishi, statik chidamliligi va lokal mushaklarning chidamliligi ostida o'zini namoyon qiladi. Ishning intensivligi va davomiyligi, shuningdek, dam olish oraliqlarining davomiyligi mashg'ulot yo'nalishi va usulning xarakterini tartibga solish imkonini berdi. Turli yo'nalishdagi mashqlarni qo'llash orqali organizmga har tomonlama ta'sir qilish uchun aylana mashq qilish usulidan keng foydalanilgan. Ushbu usul submaksimal intensivlik rejimida minimal va qat'iy tartibga solinadigan dam olish oraliqlari bilan bajariladigan ko'p yo'nalishli vazifalarning kombinatsiyasidan foydalanish bilan tavsiflanadi. Shunday qilib, tajriba guruhi erkin kurashchilarining mashg'ulot jarayonida erkin kurash, yengil atletika va sport o'yinlari vositalarini muvoffiqlikda qo'llashga e'tibor qaratdik. Yengil atletika vositalaridan turli va uzoq masofalarga yugurish, tog'li va tekis joylarda yurish kabi mashqlar qo'llaniladi. Kurashchilarning chaqqonlik sifatlarini rivojlantirish uchun muvozanatni saqlash mashqlari, arqonga tirmashib chiqish, akrobatik mashqlar (aylanma gimnastik mashqlar, dumalashlar, salto xarakati), gimnastika mashqlari, sportning o'yin turlari, sherik bilan bajariladigan mashqlardan foydalaniladi. Ushbu ishda chidamlilikni rivojlantirishga katta ahamiyat beriladi va umumiy chidamlilikni rivojlantirish uchun krosslar va sport o'yinlari qo'llaniladi, chidamlilik esa o'quv, o'quv-mashg'ulotlar va musobaqa bellashuvlari davomida rivojlanadi. Mashg'ulotlarning texnik va taktik takomillashtirish jarayonida chidamlilik sifatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi, bunda ushbu vositalarning yuklama hajmi taxminan bir-biriga to'g'ri keladi, bu "tarkibiy iz" ni keltirib chiqaradigan uzoq muddatli moslashuvning shakllanishidan dalolat beradi va eng muhimi, bu – sportchilarning funksional imkoniyatlarini oshiradi, zaxira imkoniyatlarini rivojlantiradi, kurashchilar organizmning yuqori yuklamalarga chidamliligini oshiradi. 15-16 yosh erkin kurashchilar uchun rasional moslashish vaqti ekanligini hisobga olsak, yuklamalarni o'rtacha intensivlikdan boshlab ehtiyotkorlik bilan oshirib borish tavsiya etiladi. Bularning barchasi kurashda asosiy usullarni bajarish ko'nikmalari shakllanayotganidan, eng natijador tashlashlarga – burilish bilan, egilib, qayrilib, shuningdek, erkin kurashda qo'llaniladigan ushlab va ushlab turish kabi usullarga erishilayotganidan dalolat beradi. Yuqori funksional darajani faollashtirish uchun yo'nalishi bo'yicha o'xshash bir qator mashqlarni takroriy bajarish bilan birga takroriy usul qo'llanildi. Bularning barchasi organizmdagi adaptiv

o'zgarishlarni amalga oshirishga yordam berdi. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, yuklamalar oshirilganda, 15-16 yoshli sportchining organizmi hali kuchli jismoniy zo'riqishni idrok etishga tayyor bo'lmaganida, bu adaptiv o'zgarishlarning norasionalligiga olib kelishi mumkin. Bu murabbiyning ishidagi xatolarning asosiy sababi sifatida qaralishi mumkin. Shunday qilib, kurashchilarning funksional imkoniyatlari darajasini, asosan, charchoqning rivojlanishi tufayli harakat samaradorligining sezilarli pasayishi bilan ko'p sonli takroriy mashqlarni bajarishni o'z ichiga olgan takroriy usul yordamida oshirish mumkin.

4-jadval

Erkin kurashchilarning maxsus chidamliligini rivojlantirish uchun maxsus mashqlar

№	Mazmuni	Shartlar	O'lchov birligi
Tik turish holatida			
1	1 daqiqa davomida bir oyoqqa o'tish bilan parterga o'tkazish	Tashlashlar gilamda teng og'irlikdagi sherik bilan amalga oshiriladi. Sherik tezda dastlabki holatga qaytishi kerak. Usulni texnik jihatdan to'g'ri bajarilishini nazorat qilish zarur.	Soni marta
2	2 daqiqa davomida bir oyoqqa o'tish bilan parterga o'tkazish		
3	3 daqiqa davomida bir oyoqqa o'tish bilan parterga o'tkazish		
4	6 daqiqa davomida bir oyoqqa o'tish bilan parterga o'tkazish		
5	1 daqiqa davomida tezlikda yelkadan oshirib tashlash		
6	2 daqiqa davomida tezlikda yelkadan oshirib tashlash		
7	3 daqiqa davomida tezlikda yelkadan oshirib tashlash		
8	6 daqiqa davomida tezlikda yelkadan oshirib tashlash		
	1 daqiqa davomida tezlikda beldan (son) oshirib tashlash		
10	2 daqiqa davomida tezlikda beldan (son) oshirib tashlash		
11	3 daqiqa davomida tezlikda beldan (son) oshirib tashlash		
12	6 daqiqa davomida tezlikda beldan (son) oshirib tashlash		
Parterda			
1	1 daqiqa davomida aylantirib to'ntarish	Aylantirishlar gilamda teng og'irlikdagi sherik bilan amalga oshiriladi. Sherik tezda dastlabki holatga qaytishi kerak. Usulni texnik jihatdan to'g'ri bajarilishini nazorat qilish zarur.	Soni marta
2	2 daqiqa davomida aylantirib to'ntarish		
3	3 daqiqa davomida aylantirib to'ntarish		
4	6 daqiqa davomida aylantirib to'ntarish		
5	1 daqiqa davomida boldirni chalishtirib ushlash bilan aylantirib burish		
6	2 daqiqa davomida boldirni chalishtirib ushlash bilan aylantirib burish		
7	3 daqiqa davomida boldirni chalishtirib ushlash bilan aylantirib burish		
8	6 daqiqa davomida boldirni chalishtirib ushlash bilan aylantirib burish		
9	1 daqiqa davomida yuqori sonni orqadan ushlash bilan tashlash		
10	2 daqiqa davomida yuqori sonni orqadan ushlash bilan tashlash		
11	3 daqiqa davomida yuqori sonni orqadan ushlash bilan tashlash		
12	6 daqiqa davomida yuqori sonni orqadan ushlash bilan tashlash		

Izoh: Murabbiy nazoratida olib borilgan.

Zamonaviy sport texnik va taktik mahoratlarni o'zlashtirish va aniq bajarishni

talab qiluvchi tobora oshib boruvchi jismoniy yuklamalar ta'siridagi mashg'ulot jarayonini intenfikatsiya qilish bilan tavsiflanadi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, biz, malakali erkin kurashchilarning istiqbollarini ularning sport formasini hisobga olgan holda baholash uchun, pedagogik va morfo-funksional ko'rsatkichlari asosida ishlab chiqish, kelgusida kurash turlari bo'yicha O'zbekiston terma jamoalarini ilmiy-amaliy tadqiqotlarni o'tkazish vazifasini qo'ydik. Hozirgi bosqichda sport mashg'ulotlari va musobaqa faoliyati, xususan, kurashda jismoniy va psixologik yuklamalarining kuchayishi bilan tavsiflanadi. So'nggi o'n yilliklarda sportchilarning funksional imkoniyatlarini to'liq safarbar qilishni talab qiladigan musobaqalarning intensivligi va zichligi oshganligi aniqlandi. Sport yakkakurashlarining aksariyat turlari, xususan, yakkakurash sport turlariga kiruvchi erkin kurash turlarini hisobga olsak, ayniqsa, kuchli funksional tayyorgarlik, kuch qarama-qarshiligi, vaqt tanqisligi sharoitida texnik-taktik harakatlarga yuqori talablarni qo'yuvchi bellashuvlarni olib borishning ahamiyati va samaradorligini oshirishni ajratib ko'rsatish lozim. Umumiy jismoniy ish qobiliyatlari ko'rsatkichlari bilan assosiativ aloqaga ega bo'lgan sportchilarning antropometrik va funksional xususiyatlari haqidagi ma'lumotlar sport istiqbollarini aniqlashning asosiy xususiyatlaridan biri bo'lishi mumkin.

Mashg'ulot bosqichida erkin kurashchilarning eksperimental dasturining samaradorligini aprotatsiyadan o'tkazishning yakuniy bosqichi – tajriba bosqichlarida bir yillik mashg'ulot sikli davomida informatsion funksional ko'rsatkichlarni, texnik tayyorgarlik natijalarning o'sish dinamikasini tizimli tahlil qilish hisoblanadi. Texnik va taktik harakatlar tahlili tajriba guruhidagi erkin kurashchilarning ustunligini ko'rsatdi. Malakali erkin kurashchilarning musobaqaning so'nggi daqiqasida sportchilar bellashuvni munosib yakunlashi uchun aerobik imkoniyatlarga ega emasligi, bu esa kurashchining ruhiy charchoq holatida ekanligidan dalolat beradi. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, erkin kurashchilarning aerobik imkoniyatlari va chidamlilik sifatini rivojlantirishning samarali vositasi sifatida yengil atletika vositalariga e'tibor qaratdik. Shunday qilib, atrof-muhitning turli sharoitlarida tekis va tog'li hududlarda, tekis yoki notekis yuzalikalarda yurish va yugurish, nafaqat aerobik imkoniyatlarning rivojlanishiga hissa qo'shdi, balki kurashchilarning chidamlilik sifatlarini rivojlantirish uchun asos bo'ldi. Shuningdek, biz tomonimizdan tajriba bosqichlarida chidamlilik, kuch, tezlik va tezkor-kuch sifatlarining rivojlanish dinamikasi o'rganildi.

Deyarli barcha test natijalarida tajriba guruhi kurashchilarining nazorat guruhidan sezilarli ustunligi aniqlandi. Energetik ta'minlash nuqtai nazaridan olib qaraganda erkin kurashchilarda qo'llanadigan va boshqa sport turlarida qo'llanadigan yordamchi vositalar arsenalidan eng samarali mashqlarni tanlab olish va tizimlashtirish natijalari bo'yicha, biz, ularning eng optimalini tadqiqot davomida pedagogik tajriba dinamikasida ulardan foydalanish ketma-ketligini aniqlab olish lozim deb hisobladik.

5-jadval

Tadqiqot davomida tajriba guruhidagi erkin kurashchilarining jismoniy tayyorgarligi dinamikasi, (n=15)

№	Nzorat testlar	Tadqiqot boshi			Tadqiqot oxiri			t	P
		\bar{X}	σ	V, %	\bar{X}	σ	V, %		
1	Kuper sinovi	1395	19,8	23,12	1456	11,0	14,8	1,92	<0,05
2	PWC-170 kg/m/daq jismoniy ish qobiliyati	1440,5	300,33	20,81	1648,4	211,4	11,88	3,32	<0,001
3	O‘TS, (ml)	3300	300,1	19,50	4000	250,4	12,65	2,81	<0,01
4	Nafas olib nafasni ushlab turish, (s)	45,8	5,03	15,37	46,8	1,8	9,82	1,85	<0,05
5	Joyidan turib uzunlikka sakrash, (sm)	190,0	2,2	18,35	210,0	1,7	12,75	1,79	<0,05
6	Qo‘llarga tayanib yotgan holatda 30 soniya davomida qo‘llarni bukib-yozish, (marta)	39,3	4,9	17,63	45,5	1,0	11,91	2,13	<0,05
7	Turnikda tortilish, (marta)	19,8	0,7	15,12	28,80	1,7	9,7	2,86	<0,01
8	60 soniya davomida o‘tirib-turish, (marta)	50,3	1,4	16,2	57,5	2,6	10,78	1,84	<0,05
9	4 × 10 m ga mokkisimon yugurish, (s)	14,8	1,4	15,32	10,9	0,1	8,35	3,88	<0,001
10	30 m ga yugurish, (s)	4,93	0,3	14,30	3,80	0,07	9,45	1,87	<0,05
11	4,0 m arqonga tirmashib chiqish, (s)	8,1	0,3	17,63	6,8	1,3	10,52	3,56	<0,001
12	1000 m ga yugurish (daq.)	4:39,0	2,09	14,15	3.30,2	1,05	12,52	1,82	<0,05
13	Garvard step-testi (shartli birlik)	93,7	6,01	13,87	97,9	5,61	9,23	1,91	<0,05
14	Elkalardan oshirib 10 marta tashlash, (s)	28,1	2,1	15,32	34,0	1,8	9,21	3,65	<0,001
15	10 marta beldan oshirib tashlash, (s)	27,2	1,5	14,89	36,8	1,1	7,65	2,90	<0,01
16	3 daqiqa davomida o‘zgaruvchan sur’atda manekenni tashlash, (soni)	31,5	1,30	17,25	38,2	2,30	11,98	2,72	<0,01

Tadqiqot davomidagi nazorat guruhidagi erkin kurashchilarning jismoniy tayyorgarlik dinamikasi, n=15

№	Testlar	Tajriba boshi			Tajriba oxiri			Nisbiy o'lish, %	t	P
		\bar{X}	σ	V, %	\bar{X}	σ	V, %			
1	Kuper sinovi	1390	20,03	21,21	1435	12,8	19,52	3,2	0,69	>0,5
2	PWC-170 kg/m/daq jismoniy ish qobiliyati	1438,9	294,57	22,18	1592,8	208,4	20,15	10,7	1,15	>0,1
3	O'TS, (ml)	3200	4,1	16,93	3500	3,1	14,80	9,4	1,05	>0,1
4	Nafas olib nafasni ushlab turish, (s)	44,0	4,07	16,63	42,4	2,10	13,25	3,6	0,62	>0,5
5	Joyidan turib uzunlikka sakrash, (sm)	189,0	3,0	19,55	200,9	2,2	16,33	6,3	0,56	>0,5
6	Qo'llarga tayanib yotgan holatda 30 soniya davomida qo'llarni bukib-yozish, (marta)	40,6	4,8	16,99	43,3	1,8	16,87	6,7	0,48	>0,5
7	Turnikda tortilish, (marta)	20,1	0,9	17,34	24,10	1,6	16,21	11,04	1,72	>0,01
8	60 soniya davomida o'tirib-turish, (marta)	49,1	1,6	17,76	55,6	2,2	13,62	4,3	0,63	>0,5
9	4 × 10 m ga makkisimon yugurish, (s)	14,2	1,5	15,77	11,7	0,9	12,30	17,6	1,77	>0,01
10	30 m ga yugurish, (s)	5,03	0,4	14,96	4,90	0,09	13,36	2,6	0,60	>0,5
11	4,0 m arqonga tirmashib chiqish, (s)	9,0	0,4	18,43	8,7	1,2	12,85	20,9	2,96	>0,001
12	1000 m ga yugurish, (daq., s)	4.40,5	3,1	15,23	4.37,1	3,06	15,69	3,05	0,63	>0,5
13	Garvard step-testi, (shartli birlik)	94,1	6,69	14,43	96,8	5,36	9,75	4,5	0,66	>0,5
14	Elkalardan oshrib tashlash bilan 10 marta tashlash, (s)	30,9	2,9	16,87	33,6	1,9	14,74	9,6	0,85	>0,5
15	10 marta beldan oshirib tashlash, (s)	28,7	1,7	15,34	35,2	3,2	12,52	7,4	0,82	>0,5
16	3 daqiqa davomida o'zgaruvchan sur'atda manekenni tashlash, marta	31,6	1,4	17,87	35,9	2,33	15,15	7,3	0,78	>0,5

Bu “nafas olish nafasni ushlab turish” testidagi funksional ko‘rsatkichda ham tasdiqlandi, garchi asosiy e’tibor mashg‘ulot ta’sirida aerob imkoniyatlarni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lsa-da, anaerob imkoniyatlarning ko‘rsatkichlarida zaif rivojlanish kuzatildi. Bu shuni anglatadiki, murabbiylar mashg‘ulot jarayoniga gipoksik yo‘nalishga ega bo‘lgan mashqlarni kiritishlari zarur. Tajriba guruhida “60 soniya ichida o‘tirib-turishlar” soni bo‘yicha chidamlilikka qaratilgan testda tadqiqot boshi va oxiridagi ko‘rsatkich 3,9 % ni tashkil etdi, tadqiqot boshi va oxiridagi qiymat 10,1% ga yetdi (5-6-jadvallarga qarang).

Eng yuqori o‘shish PWC-170 bo‘yicha jismoniy ish qobiliyati ko‘rsatkichida oraliq bosqichda qayd etildi – 4,15% va tajriba oxirida o‘shish 14,4% ga yetdi, bu tendensiya O‘TS ko‘rsatkichida ham o‘rnatildi. Dastlabki o‘shish 3,3% ni tashkil etdi va yakuniy bosqichda aerobik imkoniyat 12,2% ga oshdi. Garvard step testining indeksi ham tajriba oxiriga kelib sezilarli darajada oshdi va 10,7% ni tashkil etdi. Nazorat guruhi ham funksional imkoniyatlar ko‘rsatkichlarida bir xil ijobiy tendensiyani ko‘rsatdi. PWC-170 7,7% gacha oshdi. Nazorat guruhida O‘TS bo‘yicha aerob imkoniyat - 9.4%, tajriba guruhida-12.2%, GSTI natijasi NG da – 4.5%, TG da 10.7% ni tashkil etdi. Biroq, tajriba guruhidagi ko‘rsatkichlar nazorat guruhining funksional ko‘rsatkichlaridan sezilarli darajada oshdi.

Tajribaning tadqiqot boshi va oxiridagi texnik - taktik harakatlar natijalari bo‘yicha o‘shish aniqlandi. Nazorat guruhi erkin kurashchilarida tadqiqot oldi va oxiridagi “orqadan chalib 10 marta tashlash” testida o‘shish 7,1% ni, 1 va 3 bosqichlar orasida esa 9,6% ni tashkil etdi. Tajriba guruhida o‘shish 14,1% va yakuniy bosqichda, mos ravishda 21,2% ni tashkil etdi. Nazorat guruhida olib borilgan “orqadan chalib 10 marta tashlash” testida o‘shish 3,8%, ni tashkil etdi va yakuniy bosqichda 7,4% ga yetdi. Tajriba guruhida oraliq bosqichga kelib natija 12,9% ga oshdi va yakuniy bosqich oxirida 21,6% ga yetdi. “3 daqiqa davomida manekenni o‘zgaruvchan sur‘atda tashlash” testida Nazorat guruhining natijalari oraliq bosqichda 4,7% va yakuniy bosqichda 7,3% ni tashkil etdi. Tajriba guruhining natijalari yuqoriroq bo‘ldi. Oraliq bosqich oxiriga kelib natijalar 7,4%, yakuniy bosqich oxiriga kelib esa 8,5% ni tashkil etdi. Ushbu test chidamlilik sifatiga qaratilgan bo‘lib, o‘shish va rivojlanish jarayonlari davom etayotgan 15-16 yoshli kurashchilarning yoshini hisobga olgan holda, ularning yuqori natijalarga erishishi mumkin ekanligi aniqlandi.

Jismoniy tayyorgarlikning ustuvor vositalari sifatida yengil atletika va harakatli o‘yinlar vositalaridan foydalangan holda tajriba guruhida tadbiiq etilgan dasturning yuqori samaradorligi, sportchilarning respublika miqyosida o‘tkazilgan musobaqalardagi chiqishlarining samaradorligi intensiv ravishda oshgani va texnik harakatlarni namoyish etishda ballar soni ikki baravardan ko‘proq oshgani bilan va natijalar olingan statistik ma’lumotlar asosida tasdiqlandi.

XULOSALAR

1. Ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish, kurashning har xil turlarida sportchilarning maxsus chidamliligi darajasini baholash uchun manekenni (raqibni) tashlash harakatlari bo'lgan mashqlarni qo'llash maqsadga muvofiqdir. Kurashchilarning maxsus chidamliligi darajasini aniqlash uchun faqat sport topshiriqlarni bajarish vaqti hisobga olinadigan formulalar qo'llanilgan. Keltirilgan jihatlarning barchasini ichida eng kam o'rganilgani – chidamlilik sifatini takomillashtirishga taalluqli masala hisoblanadi, bu, kurashchilarning texnik harakatlarini yuqori variativligi va chidamlilik sifatini o'lchashda yagona mezonni yo'qligi bilan belgilanadi. Bunda, texnik tashlash (orqadan oshirib tashlash, orqadan chalish bilan tashlash, son ustidan oshirib tashlash) harakatlarini UJT va MJT ko'rsatkichlari bilan majmuada yengil atletika vositalaridan foydalanish bilan birgalikda qo'llash, malakali erkin kurash stilidagi kurashchilarni tayyorlash uchun ko'rib chiqilgan ko'rsatkichlarni muhimligini belgilaydi, bu, o'tkazilgan tadqiqotlar davomida aniqlandi.

2. Malakali erkin kurashchilarning jismoniy tayyorgarligini texnik usullar yordamida oshirishda to'rtta darajali (tashlashlar, ushlab turish, ag'darish va o'tkazish) turli yo'nalishlarda har xil ushlab olishlar bilan bajariladigan usullar variantlarini qo'l va oyoqlarda bajarish evaziga PWC-170 bo'yicha jismoniy ish qobiliyati ko'rsatkichida oraliq bosqichda qayd etildi 4,15% va tajriba oxirida o'sish 14,4% ga yetdi. Erkin kurash uslubi bo'yicha somatotiplarni qiyosiy tahlil qilish tana vaznining tarkibiy qismlarini ifodalash darajasida ham, somatotip toifalarini taqsimlashda ham farqlarni aniqlashga imkon berdi. Sport ustaligiga nomzod sifatida sport malakasiga ega bo'lgan sportchilar namunasida somatotipning 4 turi aniqlandi: endo-mezomorf 30,6%, ektomezomorf somatotip kurashchilarning 23%, erkin kurashchilarning 31% uchun endo-ektomorf turi topilgan va sportchilarning atigi 15,4 foizi ekto-endomorfik konstitutsiyaga ega ekanligi aniqlandi.

3. Malakali erkin kurashchilarda psixologik xususiyatlarini nazorat qilish uchun start oldi hayajonlanish darajasini oldini olishga qaratilgan psixo-fizilogik qiyinchilik va xatolarni bartaraf qilishda psixologik vosita va usullarini (his-hayajon tonusini pasayishi (apatiya) va outogen mashg'ulotlari) ishlab chiqish orqali manekenni o'zgaruvchan sur'atda 3 daqiqa davomida tashlash testida tajriba guruhi erkin kurashchilarning natijalari oraliq bosqich oxiriga kelib 7,4% va yakuniy bosqich oxiriga kelib 8,5% yaxshilanishiga erishildi.

4. 15-16 yoshli erkin kurashchilarning gipoksik yo'nalishdagi nafas olish mashqlari va trenejyorlarda bajariladigan mashqlarni (standart tekislik va nostandart tog'li hududlarda 3000 m yugurish) dam olish oraliq me'yorini hafta kunlariga taqsimlab mikrosikllar (tortuvchi va hajmli) ga singdirish orqali talaba-erkin kurashchilarning maxsus chidamliligi 15,3% ga yaxshilanishiga erishilgan.

5. Erkin kurashchilarning turli holatlarda texnik usullarni samarali bajarish uchun tik turish holatida bir daqiqa davomida bir oyoqqa o'tish bilan parterga o'tkazish, bir daqiqa davomida tezlikda yelkadan oshirib tashlash va parter holatda bir daqiqa davomida aylantirib to'ntarish va bir daqiqa davomida boldirni chalishtirib ushlab bilan aylantitib burish kabi vositalarini qo'llash orqali, tadqiqot davomida 60 soniya

ichida o'tirib-turishlar soni bo'yicha chidamlilikka qaratilgan testda jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari 3,9% ni tashkil etdi, tadqiqot davomida orasidagi qiymat 10,1% ga yetdi.

6. Tajribaning birinchi bosqichida organizmning aerob imkoniyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkichlari va O'TSni (o'pkaning tiriklik sig'imi) qoniqarli darajada rivojlanishi aniqlandi, va uni boshqa aerob imkoniyatlarni tashxis etuvchi ko'rsatkich KMO' - kislorodni maksimal o'zlashtirish uchun absolyut qiymatlarda $3,703 \pm 0,77$ l/min.ni va nisbiy qiymatlarda $54,6 \pm 7,44$ ml/min/kg.ni va past darajada rivojlanganligini tasdiqladi. Tajriba dasturini yengil atletika vositalarini kiritish bilan qo'llashning samaradorligi isbotlangan va O'TS ko'rsatkichlari bilan tasdiqlanadi, uni o'rtacha statistik ko'rsatkichi yakuniy bosqichda nazorat guruhida $2,9 \pm 0,22$ l.ni va tajriba guruhida 3,4 l.ni tashkil qildi. Tajribalarning yakunida O'TS ko'rsatkichlarini o'sishi nazorat guruhida 1 va 2-bosqichlar o'rtasida 3,1%ni, 1 va 3-bosqichlar o'rtasida 9,4%ni tashkil qilgan. Tajriba guruhida ushbu o'sish mos ravishda 3,3%ni va yakuniy qismida 12,2%ni tashkil qilgan. O'TS bo'yicha olingan natijalar mashg'ulot jarayoniga yengil atletika vositalarini kiritilishi sportchilarning aerob imkoniyatlarini aerob yo'nalgan jismoniy yuklamalarni kuchaytirish hisobiga rivojlantirish imkonini berganligi to'g'risida dalolat beradi.

7. Erkin kurash va yengil atletika vositalarini optimal uyg'unlashtirish hisobiga dastur ishlab chiqdik. Ushbu dastur erkin kurashchilarning mashg'ulot jarayonini an'anaviy tuzilishidan maxsus jismoniy tayyorgarlik vositalari va usullarini xajmini me'yorlash bilan farq qiladi. Aylana mashg'ulot usullarini uyg'unlashtirilganligi, chidamlilik sifatini rivojlantirishga ko'maklashadigan jadal, takroriy va intervalli usullardan foydalanildi. Dastur yillik mashg'ulot sikli doirasida ishlab chiqilgan, bunda, asosiy strukturaviy birlik sifatida beshta trenirovka mashg'ulotlari bo'lgan haftalik mikrosikl qabul qilingan. Jismoniy tayyorgarlik vositalari, organizmning ishlash rejimiga mos ravishda an'anaviy tarzda uchta kichik guruhlarga bo'lingan: nospesifik, spetsifik yoki mua'yan va ixtisoslashtirilgan guruhlarda mashg'ulot olib borish orqali malakali erkin kurashchilarni chidamlilik qobiliyatini takomillashtirishga erishildi.

8. Oraliq bosqichda 16 ta testlardan 7 tasini natijalari ishonchli bo'ldi. Kuch sifatleri "Turnikda tortilish" testida namoyish qilindi, undagi o'sish ancha sezilarli darajada bo'ldi va 10,5%ni tashkil qildi. Yengil atletika vositalari nafaqat aerob imkoniyatlarni oshirishga, balki qo'llar va oyoqlarning mushaklarini ham rivojlanishiga ko'maklashadi.

9. Tyezkor kuch sifatini namoyish qiladigan «Moksimon yugurish 4x10 m» va «Joyidan turib uzunlikka sakrash» testlarida o'sish sur'atlari birinchisida 18,9%ni, ($P < 0,05$), ikkinchisida 2,3%ni tashkil qilgan ($P < 0,05$). Bunday farq, bajarilgan testlarning xarakteriga bog'liq. «Moksimon yugurish 4x10 m» testi siklik xarakterga, «Joyidan turib uzunlikka sakrash» testi asiklik xarakterga ega. Olingan natijalar, yengil atletika vositalari nafaqat aerob imkoniyatlarni oshirishga, balki mushaklarni rivojlantirishga ham ko'maklashishidan dalolat beradi.

10. Trenirovka ta'sirlaridan keyin, tajriba dasturida rejalashtirilishiga ko'ra tajriba va nazorat guruhlarning ko'rsatkichlari qiyosiy tahlil qilindi. Chidamlilik sifatini "60 sekund davomida o'tirib turish" testida tajriba guruhidagi o'sish 18,9%ni

tashkil qildi ($P < 0,05$), nazorat guruhida ushbu ko'rsatkich 1 va 2-bosqichlar oralig'ida 2,3%ni, va yakuniy bosqichda 4,3%ni tashkil qildi. Demak, tajriba guruhida chidamlilik sifatini nazorat guruhinikiga nisbatan ancha yuqori darajada o'sganligidan dalolat beradi.

11. Tajribalarning yakuniy bosqichida PWC-170 bo'yicha jismoniy ishchanlik qobiliyati ko'rsatkichlarini eng katta o'sishi aniqlangan: oraliq bosqichdagi ko'rsatkich 4,15%ni, yakunida 14,4 %ni, nazorat guruhida esa, o'sish 3,8%ni va tajribaning yakunida 10,7%ni tashkil qildi. Garvard step-testi indeksi bo'yicha o'sish ham tajribalarning yakunida yuqori bo'ldi va 10,7%ni tashkil qildi.

AMALIY TAVSIYALAR

1. Sportning yakkakurash turlariga, xususan, erkin kurash turiga erta sportda tanlashni amalga oshirish paytida, tanlashni morfo-funksional ko'rsatkichlari bo'yicha ancha ishonchli bo'lgan, sportchining fenotipik ma'lumotlari bo'yicha amalga oshirish ancha ishonchli bo'ladi. Biz tomondan aniqlangan ko'rsatkichlar, xususan, HLA-A7, HLA-V35, gaplotipi, $x^2=5.76$ nafaqat kuch sifatlariga, balki chidamlilik sifatiga ham tashhis qo'yuvchi hisoblanadi.

2. Erkin kurash stilidagi 15-16 yoshli kurashchilarni tayyorlash amaliyotida aylanma trenirovka usulini qo'llash, ularning funksional tayyorgarligi darajasini ancha oshiradi. Jismoniy ishchanlik qobiliyati ko'rsatkichlarini, tiklanish jarayonini va aerob imkoniyatlarni baholash uchun trenirovka jarayonida kurashchilarning nafaqat funksional holatlarini, balki jismoniy va zahira imkoniyatlarini ham aks etadigan PWC-170, O'TS va GSTI funksional testlarni amalga oshirish bilan joriy va yakuniy nazorat qilish tavsiya qilinadi.

3. Tajriba davomida trenirovka dasturiga yengil atletika vositalari tarkibiga kiradigan umumiy va maxsus chidamlilik mashqlari, xususan, standart (tekis) va nostandart (tog'li xudud) yuzada 3000 m yugurish, yurishning har xil turlarini joriy qilish maqsadga muvofiq. Erkin kurash stilidagi kurashchilarning potensial imkoniyatlarini amalga oshirishga yo'naltirilgan, standionda 10 minutlik (400 m) yugurish amaliyoti hamda 3 minut yugurish + 30 sekund dam olish + 3 minut yugurish mashqlarini bajarish ham tavsiya qilinadi.

4. Malakali erkin kurashchilarning maxsus chidamliligining ko'pchilik turlari anaerob imkoniyatlarning rivojlanish darajasiga ko'proq bog'liq, buning uchun katta mushaklar guruhini ishga soluvchi va ishni eng katta va kattaga yaqin shiddat bilan bajarishga imkon beruvchi mashqlar qo'llaniladi.

5. Malakali erkin kurashchilarning chidamliligini rivojlantirishga qaratilgan aksariyat jismoniy mashqlarni bajarishda organizmga tushadigan umumiy yuklama quyidagi tarkiblar bilan yetarlicha to'liq ifodalanadi: mashq shiddati, mashq davomiyligi, takrorlashlar soni, dam olish tanaffuslari davomiyligi va dam olish xususiyati. U yoki bu usulni tanlashda har safar yuklama va dam olishning aniq parametrlarini aniqlab olish zarur.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ УЗБЕКСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И СПОРТА**

**УЗБЕКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И СПОРТА**

ЯКУПБАЕВ АЛИШЕР АЛИМБАЕВИЧ

**МЕТОДИКА ПОВЫШЕНИЯ СПЕЦИАЛЬНОЙ ВЫНОСЛИВОСТИ У
КВАЛИФИЦИРОВАННЫХ БОРЦОВ ВОЛЬНОГО СТИЛЯ**

**13.00.04 – Теория и методика физического воспитания, спортивной тренировки,
оздоровительной и адаптивной физической культуры**

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам**

Чирчик-2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии Республики Узбекистан за B2023.2.Phd/Ped5304

Диссертация выполнена в Навоийском государственном университете.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-сайте по адресу www.jtsu.uz и информационно-образовательном портале “Ziyonet” по адресу (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель: **Сафарова Дилбар Джамаловна**
доктор биологических наук, профессор

Официальные оппоненты: **Коробейников Георгий Валерьевич**
доктор педагогических наук, доцент

Алиев Искандар Бахромович
доктор педагогических наук, профессор

Ведущая организация: **Ургенчский государственный университет**

Защита диссертации состоится «___» «_____» 2024 г. в _____ часов на заседании научного совета DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01. при Узбекском государственном университете физической культуры и спорта по адресу: 111709, Ташкентская область, г. Чирчик, ул. Metallurglar, дом 15. Тел: (0-370)-717-17-79, 717-27-27, факс: (0-370) 717-17-76, Веб-сайт: www.uzdjtsu.uz, e-mail: uzdjtsu@uzdjtsu.uz. Узбекский государственный университет физической культуры и спорта, «Дворец культуры» малый зал заседаний, 2 этаж, зал научного совета).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Узбекского государственного университета физической культуры и спорта (зарегистрирована за _____) по адресу: 111709, Ташкентская область, г. Чирчик, ул. Спортивная, дом 19. Tel: (0-370) 717-17-79, 717-27-27, факс.: (0-370) 717-17-76.

Автореферат диссертации разослан «___» _____ 2024 г.
(реестр протокола рассылки №__ от «___» _____ 2024 г.).

Р.М. Маткаримов
Председатель научного совета по присуждению
ученых степеней, доктор педагогических
наук (DSc), профессор

Ш.Ш.Газиев
Ученый секретарь научного совета
по присуждению ученых степеней
доктор педагогических наук (DSc), доцент

А.Н.Шопулатов
Председатель Научного семинара при
научном совете по присуждению
ученых степеней
доктор педагогических наук (DSc), доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире особое внимание уделяется успешности подготовки борцов в современных условиях - эффективности методов организации, управления и контроля тренировочного процесса, рациональному использованию современных технологий в подготовке борцов, учету возрастных особенностей организма, особое внимание уделяется подготовке квалифицированных борцов вольного стиля. Во многих странах необходимо адаптировать систему подготовки спортсменов-борцов к требованиям времени, организовать учебно-тренировочный процесс для повышения специальной выносливости квалифицированных борцов вольного стиля, повышения специальной выносливости борцов вольного стиля и различных видов борьбы увеличить возможность борцов добиваться высоких результатов на соревнованиях за счет повышения их работоспособности, приобретает актуальность в настоящее время.

В мире ученые и исследователи данной области проводят научные исследования, направленные на планирование системы подготовки и проведение тренировок высококвалифицированных спортсменов, специализирующихся на вольной борьбе, в соответствии с требованиями времени. При анализе изученной научной литературы, было выявлено, что недостаточно изучен вопрос по планированию ежегодных тренировочных занятий борцов вольного стиля, средств и методов, используемых в тренировочном процессе в зависимости от физической подготовленности спортсменов, пропорций общих и специальных физических тренировочных нагрузок зависящих от интенсивности занятий, количества повторений и интервалов отдыха. Для решения этой проблемы проводится множество научных исследований. Проблемы разработки методических основ повышения специальной выносливости у квалифицированных борцов вольного стиля, направленные на оценку особенностей использования средств тренировки, выбора адекватных методов тренировки и функционального состояния борцов вольного стиля на подготовительных этапах, создают необходимость внедрения.

В нашей республике одним из приоритетных направлений является популяризация единоборств и подготовка квалифицированных борцов вольного стиля для достижения высоких результатов. Принимаются последовательные меры по «широкой пропаганде спортивной борьбы среди населения, выявлению, отбору (селекции) талантливых спортсменов, в том числе спортсменок, и созданию новой системы подготовки их как профессиональных спортсменов»¹. В настоящее время разработаны материалы по методике подготовки борцов различных стилей, проанализировано содержание физической подготовки, уделяется внимание рациональному питанию и профилактике избыточных тренировок и травматизма. Определены основные направления развития индивидуальной спортивной подготовки. К основным направлениям развития

¹ Указа Президента Республики Узбекистан «О мерах по дальнейшему совершенствованию и популяризации физической культуры и спорта в Республике Узбекистан» №УП-5924 от 24 января 2020 года

спортивной подготовки относятся морфологический, физиологический, технический и социальные компоненты, каждый из которых имеет свое определение и значение с учетом выбранной специальности и возрастных особенностей квалифицированных борцов вольного стиля, а также развитие специальной выносливости у квалифицированных борцов вольного стиля является насегодняшний день одной из наиболее актуальных проблем.

Настоящее диссертационное исследование реализовано на основе Постановления Президента Республики Узбекистан «О широком привлечении спортсменов Узбекистана, достигших высоких результатов на престижных международных спортивных соревнованиях, к общественной и спортивной деятельности, а так же поощрении спортсменов и их тренеров» №ПП-3196 от 10 августа 2017 года, Постановлений Президента Республики Узбекистан «О комплексной подготовке спортсменов Узбекистана к XXXIII летним Олимпийским и XVII Паралимпийским играм, проводимым в городе Париж (Франция) в 2024 году» №ПП-5281 от 5 ноября 2021 года, «О мерах по дальнейшему развитию Олимпийских видов спортивной борьбы» №ПП-336 от 29 июля 2022 года, а так же данная научная работа служит в определенной степени в решении задач, определенных в нормативно-правовых документах, направленных на дальнейшее совершенствование физической культуры и спорта

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Исследование проведено в рамках развития науки и технологий республики, связанных с приоритетным направлением I. «Формирование и пути повышения систем инновационных идей информационного общества в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии демократического государства».

Степень изученности проблемы. В настоящее время в процессе анализа научно-методической литературы такими учеными как, Ф.А.Керимов, А.И.Недорезов, М.А.Рузиев, А.А.Рузиев, Д.Д.Сафарова, М.Д.Пулатова² проведены ряд исследований по теме тестирования спортсменов борцов вольного стиля разного возраста, тренировочных и соревновательных нагрузок, критериев и методов определения спортивных способностей, а также развития координационных способностей борцов вольного стиля с использованием современного спортивного инвентаря, по совершенствованию системы подготовки в единоборствах, исследованию морфо-функциональных

